



**MAXSUS PEDAGOGIKA (LOGOPEDIYA) FANLARINI
O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM METODLARIDAN VA ILMIY
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Namangan Davlat Pedagogika isntituti Maxsus pedagogika
(logopediya)yo'nalishi 1-kurs magistiranti Sarimsoqova Maftuna*

Mail: sarimsoqovamaftuna01@gmail.com

Telefon:932095909

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim metodlaridan va ilmiy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari, oliy ta'lim tizimi va uning shart sharoitlari, uzluksiz ta'limning rivojlanishi, o'qitish metodikasi va unga qo'yiladigon talablar, dars jarayonida foydalaniladigon metodlar haqida ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *harakatlar strategiyasi, maxsus pedagogika, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiya, dars, o'qitish metodlari, rivojlanish.*

**USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL METHODS AND
SCIENTIFIC PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING SPECIAL
PEDAGOGICAL SCIENCES.**

Abstract: *In this article, methods of using innovative educational methods and scientific pedagogical technologies in the teaching of special subjects, the higher education system and its conditions, the development of continuous education, the teaching methodology and its requirements, in the course of the lesson the methods used are disclosed.*

Key words: *action strategy, special pedagogy, innovative education, pedagogical technology, lesson, teaching methods, development.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
МЕТОДОВ И НАУЧНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ
ПРЕПОДАВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК.**

Аннотация: В данной статье рассмотрены методы использования



инновационных образовательных методов и научно-педагогических технологий при преподавании специальных предметов, система высшего образования и ее условия, развитие непрерывного образования, методика преподавания и ее требования, в ходе урока. раскрыты используемые методы.

Ключевые слова: стратегия действий, специальная педагогика, инновационное образование, педагогическая технология, урок, методика обучения, развитие.

Kirish:

Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchilardan yangi pedagogik metodlarni va usullarni o'zlashtirishni talab qilmoqda. Maxsus pedagogika sohasida, ya'ni nogironligi bo'lgan yoki alohida ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarga ta'lim berishda, an'anaviy usullar yetarli bo'lmasligi sababli ularning ta'lim tizimida bir muncha qiyinchiliklar kelib chiqmoqda. Shu sababli, maxsus pedagogik ta'limni samarali tashkil etish uchun innovatsion ta'lim metodlari va ilmiy-pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriyatini tushunish muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda..

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmonining ijtimoiy yo'nalishida amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida oliy ta'lim muassasalari uchun pedagoglarning yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalarni ham belgilab o'tilgan. [1]

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim. [1]

Oliy ta'lim tizimi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunning joriy etilishi yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni va tadbiq etishni takozo qiladi. Shu nuqtai nazardan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'lim jarayoni, mazmunini islox qilish asosan, me'yoriy xujjatlar majmuasi (davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta'lim va tarbiya berish milliy istiqlol g'oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Uzlüksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi hamda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha hisoblanadi. [2]

Uzlüksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta'minlanadi. Ta'limning uzluksizligi shunday ma'no beradiki, inson tug'ilgandan boshlab to umrining oxirigacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Innovatsiya, ta'lim metodlari, o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinli texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, an'anaviy dars, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbat, ishbop o'yin metodi, ro'lli o'yin metodi, baxs-munozara metodi, muammoli vaziyat, loyiha metodi, muhandislik-pedagogik faoliyat, ta'lim oluvchi faoliyat, yo'naltiruvchi matn.[3]

Zamonaviy sharoitda yaxlit pedagogik jarayon, uning alohida tarkibiy qismlari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liqlikda "metodika" va "texnologiya" tushunchalari ko'p qo'llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda ham xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, pedagogik sohada faoliyat yurituvchi shaxslar o'rtasida ham ko'pgina tortishuv, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali mazkur tushunchalarning aniq tarifini shakllantirish mumkin.[4]

"Metodika" tushunchasi ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan metod va usullar yig'indisidir. Ko'pgina izohli lug'atlarda ham "Metodika — qat'iy



ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasini ifoda etishi ko'rsatib o'tilgan.

“Metodika” tushunchasiga berilgan xilma-xil ta'riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin:

1) metodika — bu o'qituvchi ishini tashkil etishning shakl, metod va vositalari;

2) malum bir faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metod va usullar yig'indisi;

3) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalga oshirishga yordam beruvchi usullar yig'indisi.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liklikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O'quv fanlarini o'qitish metodikasi metodika ma'lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir” G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovlarning fikricha, “O'qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”. [5]

O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

- hayot bilan uygunlik;
- qayta ishlab chiqishga yonalganlik;
- aniqlik;
- rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik;
- asoslanganlik;
- natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o'qitish metodikasi o'zida:

- talimning maqsad va vazifalarini — ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;



- ta'limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta'lim mazmunini;
- ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
- ta'limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o'quv vositalari;
- o'qitish natijasini aks ettiradi.[6]

Innovatsion Ta'lim Metodlari

Innovatsion ta'lim metodlari - bu o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi, ularning o'zlashtirish jarayonini shaxsiylashtiruvchi va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga asoslangan yondashuvlardir. Maxsus pedagogika kontekstida, innovatsion metodlar ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqiladi.[3]

Ilmiy-Pedagogik Texnologiyalar

Ilmiy-pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun yaratilgan usullar, vositalar va texnikalarni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar maxsus ta'limda o'quvchilarning qobiliyatlarini oshirish, o'zlashtirishni tezlashtirish va shaxsiy rivojlanishlariga yordam berishda muhim rol o'ynaydi.

1. Kompyuter texnologiyalari va multimediya - Kompyuterlar, internet va multimediya vositalaridan foydalanish maxsus ta'limda talabalarning o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Darslarni interaktiv qilish, virtual muhitda simulyatsiyalar yaratish, hamda o'quvchilarni mustaqil ishlashga undash imkonini beradi. Bu texnologiyalar shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni o'qishga ko'proq jalb qilishda yordam beradi.[7]

2. Kognitiv texnologiyalar - Kognitiv pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Maxsus ta'limda bu texnologiyalar talabalarning tafakkurini, xotirasini va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Misol uchun, turli xil kognitiv o'yinlar, mnemotexnika va turli shakllardagi testlar orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.[5]



3. Tashqi kommunikatsiya vositalari - Bunga turli xil o'qish platformalari, video darslar, telekommunikatsiya texnologiyalari kiradi. Bu vositalar o'quvchilarni uzoqdan o'qitish va ularga individual yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi. Maxsus ta'limda bu texnologiyalar o'qituvchiga talabalarning progressini kuzatib borish va kerakli tuzatishlarni kiritish imkoniyatini beradi.[4]

Innovatsion metodlarni maxsus pedagogika sohasida tatbiq etish

Maxsus ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish, o'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga va ulardan samarali foydalanishga undaydi. Bu, ayniqsa, nogironligi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda juda muhimdir, chunki ular uchun an'anaviy ta'lim usullari har doim samarali bo'lmasligi mumkin.

Individual ta'lim - Maxsus ta'limda har bir o'quvchi o'zining individual xususiyatlariga qarab o'qitiladi. Innovatsion yondashuvlar, shu jumladan, individual ta'lim, o'quvchilarning o'z ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni tashkil etish imkonini beradi.[6]

Jismoniy va ruhiy rivojlanishni birlashtirish - Maxsus ta'limda o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini birlashtirgan holda innovatsion metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar, masalan, musiqa, san'at va jismoniy tarbiya yordamida talabalarning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, maxsus pedagogika asosida mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim metodlari va ilmiy-pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatlarini yaratadi. Bu metodlar va texnologiyalar yordamida o'quvchilarning ta'lim jarayoni yanada samarali va qulay bo'ladi. Shuningdek, maxsus ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning bilim olishni yanada osonlashtiradi va ularning kelajakdagi hayotida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:



1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2 0 1 6 . - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 2 4 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2 0 16 yil 7 dekabr. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2 0 1 6 . - 4 8 b.
3. Axmedjanov M.M., To'xtayeva Z.Sh. Didaktik vositalar majmuasi. Toshkent. 2 0 0 8 . - 1 2 8 b
4. Azizxodjaeva N.N. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. - Tashkent: Moliya, 2002.
5. Baranov S.P. Pedagogika. - Toshkent: - O'qituvchi. 1 9 7 9 yil,374-bet. 25. Olimov Q.T., OAAbduquddusov, L.P.Uzoqova M.M.Axmedjonov, D.F.Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyoti. T<<Moliya>>, 2 0 0 6 y.
6. Xodjiyev M.T., Olimov Q.T. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi - Toshkent: Fan,2 0 0 5 . - 7 3 b.
7. Saliyeva Z.T. Системообразующие и содержательные компоненты воспитательных технологий. Начальная школа сегодня: проблемы преемственности Материалы международной образовательной научнопрактической конференции - Казань, 2 0 1 5 . - С.184-185.
8. Saliyeva Z.T. Профессиональное становление будущего учителя в системе непрерывного образования: теория, практика и перспективы. // Материалы международной научно-практической конференции. -Чехия, 2 0 1 7 .-С . 5 7 -5
9. Jump up Wills, Lydia (2 0 0 0). Complete Idiot's Guide to Sewing. Indianapolis, Ind: Alpha Books. ISBN 0 -0 2 -8 6 3 8 9 1 -3 .